

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 66 685,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar- dekabr oylarida YAHM deflyator indeksi 107,6 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **63 832,1** ming so'mni tashkil etdi.



### Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>58 730,3</b>	<b>66 685,4</b>	<b>105,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	57 720,0	65 444,6	105,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 010,3	1 240,8	106,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>57 720,0</b>	<b>65 444,6</b>	<b>105,5</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 607,8	9 077,2	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	42 024,4	47 914,0	105,9
sanoat	39 830,4	45 325,0	105,7
qurilish	2 194,0	2 589,0	109,3
Xizmatlar	7 087,8	8 453,4	105,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 515,8	1 994,1	115,4


	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	981,9	1 113,4	107,7
boshqa xizmatlar	4 590,1	5 345,9	101,3



**Yanvar- dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning  
tarmoqlar tarkibi, (% da)**

2021- yil






2022- yilning yanvar- dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (115,4 foiz), qurilish (109,3 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (107,7 foiz) va sanoat (105,7 foiz) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 26,8 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,3 foizga kamaydi.



## 2022- yil yanvar- dekabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

